

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning yanvar–dekabr oylarida Samarqand viloyatining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020– yilning yanvar–dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyl hajmi 33 629,3 mlrd. so'mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 103,1 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 32 505,0 mlrd. so'm (103,1%ni), o'rmon xo'jaligi 994,5 mlrd. so'm (101,4 %ni), baliq xo'jaligi 129,7 mlrd. so'm (104,9 %ni) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 12,9 %ni tashkil etdi.

**33 629,3**

**Samarqand viloyati bo'yicha
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**

01**32 505,0**

**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**


02**994,6**

O'rmon xo'jaligi


03**129,7**

Baliq xo'jaligi

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati, %da




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylaj hajmining taqsimlanishi (%)



2020–yilning yanvar–dekabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 96,7 % dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,0 % o‘rmon xo‘jaligi, 0,4 % baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2020–yilning yanvar–dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Kattaqo'rg'on (4 068 mlrd. so‘m) va Urgut (3 794 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Samarqand shahri (316 mlrd. so‘m) va Kattaqo'rg'on shahrini (189 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan yuqori o‘sish sur’atlari Kattaqo'rg'on (106,2%), Oqdaryo, (105,7 %) hamda Payariq (105,3%) tumanlarida kuzatildi. Ishtixon (100,9 %), Urgut (101,1 %), Samarqand shahri (100,1 %), hamda Bulung'ur (101,3 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish (o'zgarish) sur'ati, %




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2020–yilning yanvar–dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 32 310,6 mlrd. so'mni yoki 2019–yilning mos davriga nisbatan 102,9 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 17 353,3 mlrd. so'm (103,7 %ni), chorvachilik mahsulotlari 14 957,3 mlrd. so'm (100,2 %ni) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, %da



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)**




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 61,8 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 35,1 % – fermer xo‘jaliklariga, 3,1 % – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar
bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)**



2020-yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori korsatkich Payariq va Samarqand tumanlarida (44,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Kattaqo‘rg‘on shahrida (99,8 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Samarqand shahrida (18,3 %) qayd etildi.


Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shahrlarida (0,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Samarqand tumanida (43,6 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urgut tumanida (0,0 %) qayd etildi.

Dehqonchilik


2020–yilning yanvar–dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 17 353,3 mlrd. so‘mni yoki 2019–yilning mos davriga nisbatan 103,7 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiylajiga hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 53,7 %.ni tashkil qildi.

Don jami


Hajmi, ming t.



O’sish sur’ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2020–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 813,0 ming tonna don (2019–yilning yanvar – dekabiriga nisbatan 7,5 %ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Don ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganimizda, don ishlab chiqarish umumiylajiga hajmidan 88,9 %i fermer xo‘jaliklari hissasiga

to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish
hajmi, tonna**




Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 636,3 ming tonna sabzavotlar (2019–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 3,3 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 52,9 %i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish
hajmi, tonna**




Kartoshka


Hajmi, ming. t.




O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 626,3 ming tonna kartoshka (2019–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 0,6 %ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, kartoshka yetishtirish umumiylajmidan 76,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha **kartoshka** yetishtirish
hajmi, tonna**




Poliz


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 131,0 ming tonna poliz ekinlari (2019–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 1,5 %ga ko'p) yetishtirildi. Poliz ekinlari yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, poliz ekinlari yetishtirish umumiylajmidan 70,0 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha poliz ekinlari yetishtirish
hajmi, tonna**




Meva va rezavorlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2020–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 245,6 ming tonna meva (2019–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 1,4 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 49,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha **meva va rezavorlar**
yetishtirish hajmi, tonna



Uzum



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 555,0 ming tonna uzum (2019–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 1,7 %ga kam) ishlab chiqarildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 57,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha uzum yetishtirish
hajmi, tonna




Chorvachilik



2020–yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 14 957,3 mlrd. soʻmni yoki 2019–yilning mos davriga nisbatan 102,0 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 46,3 %ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʼrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʼpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʼldirishga imkon yaratdi.




2020–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xoʼjaliklar tomonidan tirik vaznda 302,3 ming tonna goʼsht (2019–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 1,7 %ga koʼp), 1 313,7 ming tonna sut (3,1 %ga koʼp), 1 328,2 mln. dona tuxum (2,0 %ga kam), 38 523 dona qorakoʼl teri (19,7 %ga kam) ishlab chiqarildi va 11 608,6 tonna baliq (29,4 %ga koʼp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 302,3 ming tonna go'sht (2019–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 1,7 %ga ko'p), ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 81,0 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Samarqand viloyati bo'yicha
go'sht (tirik vaznda)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 313,7 ming tonna sut (2019-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 3,1 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati bo'yicha
ishlab chiqarilgan
sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 328,2 mln. dona tuxum (2019–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 2,0 %ga kam) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 49,7 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.




Samarqand viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2020–yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 11 608,6 tonna (2019–yilning yanvar–dekabriga nisbatan 29,4 %ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 84,5 %i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Samarqand viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna**



Chorva mollari va parrandalar bosh soni hamda o'sish sur'ati,



2021– yining 1– yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,3 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 94,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 7,2 %i fermer xo'jaliklariga, 88,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 3,9 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiyligi sonidan 14,0 %i fermer xo'jaliklariga, 84,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,1 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiyligi sonidan 33,0 %i fermer xo'jaliklariga, 47,5 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga,


19,5 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keladi.

2021–yilning 1–yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 606,0 ming taga yetdi.


2019–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 27,8 ming taga (1,8 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 94,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



**Samarqand viloyati
bo‘yicha yirik shoxli
qoramollarning umumiyl
bosh soni, ming bosh**




2021-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 701,9 ming taga yetdi.


2019-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni 6,9 ming taga (1,0%) ko'paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh soning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, sigirlarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami

sigirlarning 94,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



**Samarqand viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh**






2021– yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 492,9 ming taga yetdi.

2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 58,9 ming taga (2,4 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar

Soni, ming bosh

O’sish sur’ati




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 88,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



**Samarqand viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh**




2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, otlarning umumiyligi bosh soni 27 242 taga yetdi.


2019 –yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 689 taga (2,6 %ga) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



**Bosh soning
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, otlarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 84,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



**Samarqand viloyati
bo'yicha otlarning
umumiyl bosh soni, bosh**



2021–yilning 1–yanvar holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 13 448,8 ming taga yetdi.


2019–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 584,0 ming taga (4,5 %ga) ko‘p.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati




Bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning 1–yanvar holatiga ko‘ra, parrandalarning soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 47,5 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Samarqand viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh**



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

- 66-230-45-30
- 66-235-22-01